

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.23.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

TURAYEVA ADIBA IKRAMOVNA

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YASHIL IQTISODIYOTNI
RIVOJLANTIRISHNING MAKROIQTISODIY JIHATLARI**

08.00.02 – Makroiqtisodiyot

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

UDK: 330.101.541(575.1) +338:504(575.1)

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
economic sciences**

Turayeva Adiba Ikramovna

O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning makroiqtisodiy
jihatlar.....3

Тураева Адипа Икратовна

Макроэкономические аспекты развития зеленой экономики в Республике
Узбекистан27

Turaeva Adiba Ikramovna

Macroeconomic aspects of Green Economy development in the Republic of
Uzbekistan.....51

E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works56

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.23.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

TURAYEVA ADIBA IKRAMOVNA

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YASHIL IQTISODIYOTNI
RIVOJLANTIRISHNING MAKROIQTISODIY JIHATLARI**

08.00.02 – Makroiqtisodiyot

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Iqt2866 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezume)) ilmiy kengash web-sahifasi (www.tsue.uz) va «Ziynet» axborot-ta'lim (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Askarova Mavluda Turabovna
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Nasirhodjayeva Dilafruz Sabitxanovna
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Amirov Lochinbek Fayzullayevich
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.1.23.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil «19» 01 soat 19.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49-uy. Tel.: (99871) 239-01-49, faks: (99871) 232-69-92, e-mail: tdiu@tdiu.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1906 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49-uy. Tel.: (99871) 239-01-49, faks: (99871) 232-69-92, e-mail: tdiu@tdiu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «19» 01 kuni tarqatildi.
(2026-yil «19» 01 dagi 104 raqamli reestr bayonnomasi).



S.K.Xudoyqulov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

B.E.Mamaraximov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

U.V.Gafurov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish iqlim o'zgarishi, resurslar tanqisligi va ekologik xavflar sharoitida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ish o'rinlarini yaratish hamda tabiiy kapitalni saqlab qolishning strategik mexanizmi sifatida namoyon bo'lmoqda. Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi an'anaviy o'sish modellaridan past uglerodli, resurs tejamkor va bioxilma-xillikni asraydigan ishlab chiqarish va iste'mol tarziga bosqichma-bosqich o'tishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv doirasida qayta tiklanadigan energiya, yashil sanoat, ekologik turizm, «toza» transport va qishloq xo'jaligi kabi yo'nalishlar orqali qo'shilgan qiymat oshirilib, ijtimoiy inklyuziya va hududiy rivojlanishga yuqori ta'sir ko'rsatiladi. BMTning bu boradagi hisobotida ta'kidlanishicha, «yashil iqtisodiyot uzoq muddatli o'sishni ta'minlar ekan, u ekologik xavf-xatar va resurslar tanqisligini kamaytirish bilan birga, inson farovonligi va ijtimoiy adolatni oshirishga xizmat qiladi»¹. Shu bois, jahon iqtisodiyoti sharoitida yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmi, uning tarkibiy elementlari va milliy xo'jalik barqaror rivojiga ta'sirini ilmiy tadqiq etish dolzarb hisoblanadi.

Jahon miqyosida yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning makroiqtisodiy jihatlarini bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar barqaror iqtisodiy o'sish, fiskal va pul-kredit siyosati, mehnat bozori hamda investitsiya oqimlarini «yashil» transformatsiya shart-sharoitlariga moslashtirish masalalarini qamrab olgan holda izchil rivojlanmoqda. Mazkur tadqiqotlarda, asosan, yashil o'sish modellarini milliy hisoblar va YAIM dinamikasiga integratsiya qilish, «yashil» investitsiyalar va qayta tiklanadigan energiyaga qaratilgan sarmoyalarning makroiqtisodiy natijalarini baholash, ekologik soliqlar va to'lovlarning inflyatsiya, bandlik va raqobatbardoshlikka ta'sirini ekonometrik modellar yordamida tahlil qilish, «yashil» kasblar va mehnat bozori tarkibiy tuzilmasidagi o'zgarishlarni o'rganish, shuningdek, yashil moliya instrumentlari orqali davlat qarzi barqarorligi va moliyaviy barqarorlikka ta'sirini baholash ustuvor yo'nalishlar sifatida ko'rib chiqilmoqda.

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning makroiqtisodiy jihatlarini takomillashtirish bo'yicha vazifalar iqtisodiy o'sish modelini past uglerodli, resurs tejamkor va ekologik jihatdan barqaror traektoriyaga o'tkazish, YAIM tarkibida energiya samarador va «yashil» tarmoqlar ulushini oshirish, shuningdek investitsiya va soliq siyosatini barqaror rivojlanish mezonlari bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan davlat strategiya va dasturlarida belgilab qo'yilgan. Bu yo'nalishda qayta tiklanadigan energiya manbalarini jadal rivojlantirish, sanoatda resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish, «yashil» moliya instrumentlarini (yashil obligatsiyalar, loyiha asosida kreditlash, subsidiya va soliq imtiyozlari) kengaytirish, shuningdek, milliy hisoblar va byudjet-sug'urta siyosatiga ekologik risklar va ko'rsatkichlarni integratsiya qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xalqaro tashkilotlar tahlillarida

¹ Manba: UNEP, Green Economy Initiative. - <https://www.unep.org/explore-topics/resource-efficiency/what-we-do/policy-and-strategy/green-economy>

ham O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha qadamlar makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash, investitsiya muhitini yaxshilash va yangi “yashil” ish o‘rinlari yaratish salohiyatiga ega ekanligi ta’kidlanishi ushbu yo‘nalishdagi siyosatning dolzarbligini tasdiqlaydi. Shu bois, mamlakatimizda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning makroiqtisodiy mexanizmlari, ularning o‘shish, inflyatsiya, bandlik va tashqi iqtisodiy muvozanatga ta’sirini modellashtirish va baholash masalalarini ilmiy tadqiq etish belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirish dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va «yashil iqtisodiyot» yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”, 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash yili Davlat dasturi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son ««O‘zbekiston-2030» strategiyasi to‘g‘risida», 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi farmonlari, 2023-yil 25-oktyabrdagi PQ-561-son “Yashil iqtisodiyot milliy taksonomiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son “Yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha islohotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4477-son “2019–2030-yillarda yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorlari va ushbu sohadagi boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy hamda madaniyma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Yashil iqtisodiyotning rivojlanishini takomillashtirish bo‘yicha xorijlik olimlardan A.M.Rodrigues², D.Zhang, M.Mohsin³, P.Sho‘derholm, A.Kasztelan⁴, L.Georgeson, M.Maslin, M.Poessinouw⁵, N.Narouzi, MDH davlatlari olimlaridan N.B.Paxomova, K.K.Rixter, G.B.Malishkov⁶, E.A.Lyaskovskaya, K.A.Grigoryeva⁷,

² A.M. Родригес. “Зеленая экономика в контексте проблем устойчивого развития”. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. <https://www.dissercat.com/content/zelenaya-ekonomika-v-kontekste-problem-ustoichivogo-razvitiya>;

³ D.Zhang, M.Mohsin, A.K Rasheed., Y.Chang, F. Taghizadeh-Hesary (2021). Public spending and green economic growth in BRI region: mediating role of green finance. Energy Policy, 153, 112256.; P. Sho‘derholm. The green economy transition: the challenges of technological change for sustainability. Sustainable Earth. Söderholm Sustainable Earth (2020) 3:6 <https://doi.org/10.1186/s42055-020-00029-y>.

⁴ A. Kasztelan. Green Growth, Green Economy and Sustainable Development: Terminological and Relational Discourse. May 2017. Prague Economic Papers, 2017, 26(4), 487-499, [https://doi.org/10.18267/j.ppep.626](https://doi.org/10.18267/j.ppep.626;);

⁵ L. Georgeson, M. Maslin, M. Poessinouw. The global green economy: a review of concepts, definitions, measurement methodologies and their interactions. Geo: Geography and Environment. Jan. 2017 | Volume 4 | Issue 1. 00036 ISSN 2054-4049 doi: 10.1002/geo2.36© 2017.; N. Norouzi. Green Economy: A Necessary Decision to be Taken. Universal Journal of Finance and Economics, 2021, 1, 3-12 www.scipublications.org/journal/index.php/ujfe DOI: 10.31586/ujfe.2021.108.

⁶ N.V.Pakhomova, K.K.Rikhter, G.B. Malyshev Inclusive sustainable development: priorities, indices, international experience, potential of coordination with reindustrialization model. Problemy sovremennoy ekonomiki [Problems of modern economics], 2014, no. 3(51), pp. 15-24. (in Russ.)

V.A.Poxvoshev, A.V.Lukina⁸, M.M.Davletova⁹, N.N.Yashalova¹⁰, V.Podgorniy, F.A.Shulenbaeva¹¹, J.B.Smagulova, A.Ye.Muxanova, G.I.Musaeva¹² va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Qayd etish lozimki, bir qator dissertatsiya tadqiqotlarida «yashil iqtisodiyot»ni shakllantirish va rivojlantirish masalalari oʻz aksini topgan. Xususan, A.M. Rodrigues, M.M. Davletova va N.N. Yashalovalarning ishlarida yashil iqtisodiyotning nazariy-metodologik asoslari, uni amalga oshirish mexanizmlari va barqaror rivojlanish sharoitida rivojlanish istiqbollari atroflicha koʻrib chiqilgan.

Oʻzbekistonlik olimlarning tadqiqotlarida, xususan, Q.X.Abdurahmonov, A.V.Vahobov¹³, B.B.Berkinov¹⁴, N.M.Mahmudov¹⁵, A.M.Qodirov, D.S.Nasirxodjaeva, M.T.Asqarova¹⁶, N.K.Zakirova¹⁷, A.T.Axmedieva, N.A.Xashimova, G.Nigmatullaeva, Sh.X.Xojibokiev, T.K.Iminov¹⁸, A.Isadjanov¹⁹, E.A.Moʻminov²⁰, N.A.Hakimov, M.A.Qarshiyev, N.G.Xidirov, S.M.Haydarovning ishlarida «yashil iqtisodiyot»ning oʻziga xos xususiyatlari, uning barqaror rivojlanishdagi ahamiyati bayon etilgan.

Masalan, professor A.A.Vahobov «Yashil iqtisodiyot» darsligida qayta tiklanuvchi energiya manbalari muammolariga zamonaviy yondashuvlarni, jumladan, yashil iqtisodiyotda strategik rejalashtirish va strategiyani amalga oshirish jarayonlarini tahlil qilgan²¹; professor Q.X.Abdurahmonovning ilmiy maqolasida barqaror rivojlanishning makroiqtisodiy ustuvorliklari ifodalangan²²;

⁷ Лясковская, Е.А., Григорьева К.А. Формирование «зеленой» экономики и устойчивость развития страны и регионов. // Вестник УрГУ. Серия «Экономика и менеджмент». - 2018. –Т. 12, № 1. - С. 15-22. DOI: 10.14529/et180102.

⁸ В.А. Похвоцев, А.В. Лукина. «Зеленая экономика» в социальном развитии России. <https://cyberleninka.ru/article/n/zelenaya-ekonomika-v-sotsialnom-razvitii-rossii>.

⁹ М.М. Давлетова. Формирование и развитие “зеленой” экономики в условиях стран Центрально- Азиатского региона. <https://tnu.tj/avtorefi/avtorefDavlyatovaMM.pdf>.

¹⁰ Н.Н. Яшалова Стимулирование устойчивого эколого-экономического развития региона. Автореферат на соискание ученой степени доктора экономических наук. <https://www.prilib.ru/item/684795>;

¹¹ В.Подгорный, Ф.А. Шуленбаева Использование "зеленой экономики" для устойчивого развития сельского хозяйства Казахстана <https://ecogofond.kz/wp-content/uploads/2022/08 /ispolzovanie-zelenoj-jekonomiki-dlja-ustojchivogo.pdf>).

¹² Ж.Б.Смагулова, А.Е. Муханова, Г.И. Мусаева. Анализ мирового опыта перехода к зеленой экономике: предпосылки и направления // Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. – 2015. – № 1-1. – С. 92-96; URL: <https://applied-research.ru/ru/article/view?id=6344> (муружаат вакти: 12.04.2023 й.).

¹³ А.В. Вахобов. «Зеленая экономика» Учебник. – Т.: Издательство «Инновационное развитие» 2023, 208 стр.

¹⁴ Б.Б. Беркинов. Институционал иктисодиёт. Учебник. Т.: «Innovatsiya-Ziyo» 2025, 376 стр.

¹⁵ Н.М. Махмудов «Зеленая экономика» Учебник, «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2025й., 432 стр.

¹⁶ М.Т. Асқарова О`zbekiston iqtisodiyotida inklyuziv o`shish metodologiyasini takomillashtirish, Монография. Издательство «Toshkent-Moliya» 2025, 160 стр.

¹⁷ Н.К. Закирова «Зеленая экономика» – обеспечение безопасного и устойчивого будущего, 13.01.2025. <https://reu.uz/novosti/zelenaja-jekonomika-obespechenie-bezopasnogo-i-ustojchivogo-budushhego>

¹⁸Иминов Т.К., Вахобов А.В. и др “Зелёная экономика” как основа устойчивого развития. Монография. -Т: 2019. “Алоқачи”, 480 – б.;

¹⁹ Исаджанов А. “Яшил иктисодиёт”: хусусиятлари ва ривожланиш омиллари. Иктисодиёт ва таълим / 2020, № 1. – Б. 12-18.;

²⁰ Мўминова Э.А. Яшил иктисодиёт барқарор ривожланиш механизми сифатида. Иктисод ва молия / Экономика и финансы 2023, 1 (161). – б. 16-22.;

²¹ A.V.Vahobov «Yashil iqtisodiyot» Darslik. – Т.: Nashriyot «Инновационное развитие» 2023у, 208 bet.

²² Абдурахманов, К. (2024). Перспективы реформирования и устойчивого развития экономики Узбекистана в условиях цифровой трансформации и внедрения искусственного интеллекта. «Milliy iqtisodiyotni isloh qilish va barqaror rivojlantirish istiqbollari» mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi», 12–16 betlar. 24.10.2024у. Ташкент.: <https://inlibrary.uz/index.php/dev-national-economy/article/view/58264>

professor B.B.Berkinov²³ o'zining «Institutsional iqtisodiyot» nomli darsligida iqtisodiy tizimlarning rivojlanishi, institutlarning transformatsiyasi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning xatti-harakatlarini tahlil qilish bilan bog'liq institutsionalizmning nazariy va amaliy jihatlarini ochib bergan; professor M.T.Asqarovaning ilmiy ishida inklyuziv rivojlanishning ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligini oshirish strategiyasini shakllantirish masalalari ko'rib chiqilgan²⁴; professor N.M.Mahmudovning «Yashil iqtisodiyot» darsligida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish asosida global ekologik muammolarni hal etish masalalari muhokama qilingan²⁵.

Yuqorida qayd etilgan olimlarning ilm-fan rivojiga va «yashil iqtisodiyot» muammolarini tadqiq etishga qo'shgan salmoqli hissasini e'tirof etgan holda, shuni ta'kidlash lozimki, O'zbekiston sharoitida, ayniqsa hududlarning iqtisodiy rivojlanishi va ularning hududiy xususiyatlarini inobatga olgan holda ekologik muammolarni hal etish nuqtai nazaridan, «yashil iqtisodiyot»ni shakllantirish va amalga oshirishning ilmiy-uslubiy asoslari yetarlicha ishlab chiqilmagan. Shu bilan birga, uning rivojlanishi va milliy sharoitlarga moslashishining zamonaviy tendensiyalari yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish muammosiga e'tibor tobora ortib borayotganiga qaramay, makroiqtisodiy jihatlarni aniqlash, ayniqsa, ekologik va iqtisodiy barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan resurslarni tejaydigan ishlab chiqarish va ekologik innovatsiyalarni joriy etishning ahamiyati haqidagi gipotezani empirik tekshirishda hali ham yetarlicha o'rganilmagan. Mamlakatimiz iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda yuqoridagi masalalarni tadqiq etish zarurati mavzuni tanlashga asos bo'ldi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasalarining ilmiy tadqiqot ishlar rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining FM-1 “O'zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozlashning ilmiy-metodologik asoslari va usullarini takomillashtirish” yo'nalishi hamda ATD-2 “O'zbekistonda inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlashning konseptual asoslarini takomillashtirish” loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotning makroiqtisodiy jihatlarini rivojlantirishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-uslubiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

yashil iqtisodiyot konsepsiyasi va uning makroiqtisodiy tizimga integratsiyasini nazariy-metodologik tahlil qilish, shuningdek, asosiy modellar va vositalarni aniqlash;

²³ B.Berkinov Institutsional iqtisodiyot. Darslik. T.: «Innovatsiya-Ziyo» 2025-y, 376 bet.

²⁴ M.T. Asqarova O'zbekiston iqtisodiyotida inklyuziv o'sish metodologiyasini takomillashtirish mavzusidagi ilmiy ishi. Nashriyot «Toshkent-Moliya» 2025y, 160 bet.

²⁵ N.M.Mahmudov «Yashil iqtisodiyot» Darslik, «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2025y., 432 bet

yashil iqtisodiyot tamoyillarini makroiqtisodiy siyosatga integratsiya qilish bo'yicha xalqaro tajribani o'rganish va O'zbekiston sharoitlariga moslashtirilgan mexanizmlarni aniqlash;

O'zbekiston iqtisodiyoti yashil sektorlarining hozirgi holatini tahlil qilish, ularni rivojlantirishning institusional va tarkibiy shart-sharoitlarini aniqlash;

makroiqtisodiy ta'sirlarni baholash va milliy iqtisodiyotning yashil transformatsiyasi jarayonidagi to'siqlarni aniqlash;

tuzilgan modellar asosida yashil transformatsiyaning makroiqtisodiy ta'sirini prognoz qilish;

makroiqtisodiy darajada yashil iqtisodiyot tamoyillarini amalga oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalarni shakllantirish.

Tadqiqotning ob'yekti O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotning makroiqtisodiy jihatlarini rivojlantirish jarayonlari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotning makroiqtisodiy jihatlarini rivojlanishi va faoliyati jarayonida shakllanadigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmui hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, iqtisodiy-statistik, ekonometrik, matematik modellashtirish, ekspert baholash, qiyosiy, tizimli va tarkibiy-funksional tahlil, tarixiy-mantiqiy rekonstruksiya, iqtisodiy-matematik modellashtirish, statistik va ekonometrik ma'lumotlarni qayta ishlash va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Markaziy bank tomonidan yashil kreditlar uchun pastroq qayta moliyalash stavkalari yoki rezerv normalarini differensiallashtirish hamda pensiya va sug'urta fondlarini uzoq muddatli yashil infratuzilma obligatsiyalariga investor sifatida jalb qilish orqali milliy "yashil moliya arxitekturasini"ni shakllantirish va monetar siyosatga integratsiya qilish asoslangan;

ekologik salbiy ta'sirga ega, ko'p energiya sarflaydigan korxonalar uchun ekologik soliq va yig'imlar shkalasini bosqichma-bosqich joriy etish, energiya tejamkor va qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanuvchi korxonalar uchun soliq kreditlari, amortizatsiyani tezlashtirish, QQS bo'yicha imtiyozlarni kengaytirish orqali "yashil soliq islohoti"ni joriy etish taklif etilgan;

iqtisodiyotning turli darajalaridagi strategiya va investitsiya dasturlarida yashil indikatorlar bo'yicha ssenariy modellashtirishni majburiy tartibda amalga oshirish talabini kiritish orqali makroiqtisodiy tahlil va qaror qabul qilish jarayonida "o'sish + ekologik barqarorlik + tabiiy kapitalning saqlanishi" kompleks shartini qo'llash orqali iqtisodiy siyosatni barqaror va yashil yo'nalishga o'tkazish taklifi asoslangan;

O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishning makroiqtisodiy jarayonlariga ta'sir etuvchi ko'p omilli ekonometrik model asosida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

yashil iqtisodiyotning konseptual asoslari asoslangan va "yashil" investitsiyalarning iqtisodiy o'sish, bandlik va tashqi iqtisodiy faoliyatga ta'sirini

miqdoriy baholash imkonini beruvchi makroiqtisodiy modellar ishlab chiqilgan; ekologik transformatsiyani jadallashtirishga to'sqinlik qilayotgan institusional to'siqlar va muammolar aniqlangan, shuningdek, taklif etilgan indikatorlar tizimi asosida yashil rivojlanish dinamikasini monitoring qilish uchun milliy statistika tizimini takomillashtirish zarurati asoslangan;

yashil o'sish makroiqtisodiy siyosatining strategik ustuvor yo'nalishlari ishlab chiqilgan, iqtisodiyotning ekologik yo'naltirilgan modeliga o'tishning ssenariy prognozlari tayyorlangan hamda fiskal, investitsion va moliyaviy siyosatni takomillashtirish yo'nalishlari asoslangan;

suv va energiya tejaydigan texnologiyalarni joriy etayotgan korxonalarni rag'batlantirish mexanizmlari, shuningdek, yashil obligatsiyalar va boshqa yashil moliyaviy vositalarni chiqarishni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilgan;

yashil iqtisodiyotning makroiqtisodiy jihatlarini tadqiq etish jarayonida qurilgan ko'p omilli ekonometrik model asosida O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanish prognoz parametrlarini ishlab chiqish amalga oshirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsion tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishonchli va rasmiy ma'lumot manbalaridan foydalanganlik, qo'llanilgan yondashuvlarning nazariy-metodologik asoslanganligi, ma'lumotlar bazasi sifatida xalqaro tashkilotlar ma'lumotlari, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Suv xo'jaligi vazirligi, Milliy statistika qo'mitasining rasmiy statistika va tahliliy materiallaridan foydalanganlik, shuningdek, tadqiqot natijalarida keltirilgan xulosalar, takliflar va tavsiyalarining vakolatli idoralar amaliyotiga joriy qilinganligi orqali namoyon bo'ladi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati unda ishlab chiqilgan yashil iqtisodiyotning makroiqtisodiy jihatlarini rivojlantirish bo'yicha nazariy-metodologik asoslar, taklif qilingan makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va "yashil" transformatsiya parametrlarining o'zaro bog'liqliklarini o'rganishga yagona yondashuv, shuningdek, davlat boshqaruv organlari tomonidan fiskal siyosat, investitsiyalar va "yashil" texnologiyalarning makroiqtisodiy barqarorlikka ta'sirini tavsiflaydigan yangi ekonometrik bog'liqliklardan yashil iqtisodiyotning makroiqtisodiy mexanizmlarini baholash va rag'batlantirish bo'yicha ekologiyalashtirishga yo'naltirilgan yondashuvlar, resurs samaradorligini oshirish va YAIMning karbon intensivligini kamaytirish bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqishda va amalga oshirishda foydalanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati ushbu tadqiqot doirasida shakllantirilgan xulosalar va tavsiyalarni davlat boshqaruv organlari tomonidan yashil iqtisodiyot rivojlanishini kuchaytirishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda qo'llash, yashil investitsiyalarni shakllantirish, samarali foydalanish va to'plash bo'yicha taklif etilgan yo'nalishlarni barqaror o'sishga yo'naltirilgan maqsadli strategiyalarga integratsiya qilish, shuningdek, dissertatsiya materiallaridan "Makroiqtisodiyot", "Dinamik makroiqtisodiyot", "Innovatsion iqtisodiyot", "Makroiqtisodiy siyosat" va "Inklyuziv o'sish" kabi

iqtisodiy fanlar bo'yicha oliy ta'lim dasturlarini takomillashtirishda foydalanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotning makroiqtisodiy jihatlarini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy-metodologik takliflar va amaliy tavsiyalar asosida:

Markaziy bank tomonidan yashil kreditlar uchun pastroq qayta moliyalash stavkalari yoki rezerv normalarini differensiallashtirish hamda pensiya va sug'urta fondlarini uzoq muddatli yashil infratuzilma obligatsiyalariga investor sifatida jalb qilish orqali milliy "yashil moliya arxitekturasini"ni shakllantirish va monetar siyosatga integratsiya qilish taklifi O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi Toshkent shahar boshqarmasining 2025-yil 28-sentyabrdagi № 05-423-sonli ma'lumotnomasi, O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2025-yil 17-dekabrdagi 03-03/1-03/3-13758-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida milliy "yashil moliya arxitekturasini"ni shakllantirish va monetar siyosatga integratsiya qilish imkoni yaratilgan;

ekologik salbiy ta'sirga ega, ko'p energiya sarflaydigan korxonalar uchun ekologik soliq va yig'imlar shkalasini bosqichma-bosqich joriy etish, energiya tejamkor va qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanuvchi korxonalar uchun soliq kreditlari, amortizatsiyani tezlashtirish, QQS bo'yicha imtiyozlarni kengaytirish orqali "yashil soliq islohoti"ni joriy etish taklifi O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi Toshkent shahar boshqarmasining 2025-yil 28-sentyabrdagi № 05-423-sonli ma'lumotnomasi, O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2025-yil 17-dekabrdagi 03-03/1-03/3-13758-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida ekologik soliq va yig'imlar shkalasini bosqichma-bosqich joriy etish, soliq kreditlari, amortizatsiyani tezlashtirish, QQS bo'yicha imtiyozlarni kengaytirishdan iborat "yashil soliq islohoti"ni joriy etish imkoni yaratilgan;

iqtisodiyotning turli darajalaridagi strategiya va investitsiya dasturlarida yashil indikatorlar bo'yicha ssenariy modellashni majburiy tartibda amalga oshirish talabini kiritish orqali makroiqtisodiy tahlil va qaror qabul qilish jarayonida "o'sish + ekologik barqarorlik + tabiiy kapitalning saqlanishi" kompleks shartini qo'llash orqali iqtisodiy siyosatni barqaror va yashil yo'nalishga o'tkazish taklifi O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi Toshkent shahar boshqarmasining 2025-yil 28-sentyabrdagi № 05-423-sonli ma'lumotnomasi, O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2025-yil 17-dekabrdagi 03-03/1-03/3-13758-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga

joriy etilishi natijasida strategiya va investitsiya dasturlarida yashil indikatorlar bo'yicha ssenariy modellashni majburiy tartibda amalga oshirish talabini kiritish orqali iqtisodiy siyosatni barqaror va yashil yo'nalishga o'tkazish imkoni yaratilgan;

O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishning makroiqtisodiy jarayonlariga ta'sir etuvchi ko'p omilli ekonometrik model asosida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning 2030 yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi Toshkent shahar boshqarmasining 2025-yil 28-sentyabrdagi № 05-423-sonli ma'lumotnomasi, O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2025-yil 17-dekabrdagi 03-03/1-03/3-13758-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning prognoz ko'rsatkichlari doirasida makroiqtisodiy parametrlarni o'zaro muvofiqlashtirish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy g'oyalari va xulosalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya tadqiqoti davomida olingan asosiy qoidalar va xulosalar 11 ta ilmiy nashrda o'z aksini topgan. Ular qatorida - O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 6 tasi respublika va 1 tasi xalqaro jurnallarda, shuningdek, 4 ta respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda ma'ruza tezislari nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsion ish kirish qismi, o'zaro bog'langan uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 125 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi asoslangan bo‘lib, unda O‘zbekiston Respublikasida barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyotga o‘tishning ustuvor yo‘nalishlari yoritib berilgan. Muammoning ilmiylik darajasi ochib berilgan, tadqiqotning oliy ta‘lim muassasasining ilmiy dasturlari bilan bog‘liqligi ko‘rsatilgan. Shuningdek, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob‘ekti, predmeti va usullari aniqlanib, ilmiy yangiligi, amaliy ahamiyati, natijalarning ishonchliligi va joriy qilinishi bayon qilingan.

Dissertatsiyaning **“Makroiqtisodiy tizimda yashil iqtisodiyotning nazariy-uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida ekologik yo‘naltirilgan loyihalarni rag‘batlantirish tizimiga monetar siyosat vositalarini integratsiyalashni taqozo etuvchi “yashil” moliya milliy arxitekturasining shakllanishi ko‘rib chiqilgan. O‘zbekiston Respublikasi sharoitida Markaziy bank tomonidan “yashil” kreditlar bo‘yicha qayta moliyalash stavkalari va majburiy zaxiralash me‘yorlarini tabaqalashtirish muhim mexanizm bo‘lib, bu “yashil” loyihalarni uzoq muddatli moliyalashtirish xarajatlarini kamaytirish va monetar siyosatning kreditlash kanali orqali transmission mexanizmini kuchaytirish imkonini beradi. Yashil targetlash elementlarining monetar siyosatga kiritilishi institutsional cheklovlar, resurslarga bog‘liqlik va F-M-G sektorlari o‘rtasidagi tarkibiy nomutanosibliklarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan integratsiyalashgan yashil rivojlanish makroiqtisodiy modelining ta‘sirini kuchaytiradi.

Yashil moliyaviy arxitekturaning muhim tarkibiy qismi pensiya va sug‘urta jamg‘armalarining yashil infratuzilma obligatsiyalarida uzoq muddatli investorlar sifatida ishtirok etishi bo‘lib, bu ekologik ahamiyatga ega loyihalar uchun barqaror moliyaviy bazani shakllantirishga yordam beradi. Bunday institutsional investorlarni jalb qilish moliyaviy oqimlarning diversifikatsiyasini ta‘minlaydi va yashil transformatsiyani moliyalashtirish manbalarining konsentratsiyasi bilan bog‘liq xatarlarni kamaytiradi.

Bundan tashqari, yashil rivojlanishning konseptual yondashuvlari, makroiqtisodiy modellar va yashil iqtisodiyot vositalari, shuningdek, barqaror o‘tish tamoyillarini iqtisodiy siyosatga integratsiya qilish bo‘yicha xalqaro tajriba ko‘rib chiqildi. O‘zbekiston Respublikasi uchun birinchi marta dinamik stoxastik umumiy muvozanat (DSGE yondashuvi) va institutsional-strukturali tahlil sinteziga asoslangan “yashil” rivojlanishning integratsiyalashgan makroiqtisodiy modeli yaratildi. Model milliy iqtisodiy strukturaning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettirib, yashil iqtisodiyotga o‘tishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan strategik maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan. Shu munosabat bilan shuni ta‘kidlashni istardikki, modelda iqtisodiyot uchta asosiy sektorga bo‘lingan: F (qazib olinadigan xomashyo, yuqori energiya sig‘imi va chiqindilar), M (qayta ishlash va xizmat ko‘rsatish, modernizatsiya salohiyati) va G (“yashil”, qayta tiklanadigan energiya va ekologik barqaror ishlab chiqarish). Bunday ajratish real tarkibiy nomutanosibliklarni hisobga olish va institutsional muhit o‘zgarganda resurslarni qayta taqsimlashni modellashtirish imkonini beradi.

Model parametrlarini kalibrlash 1-jadvalda keltirilgan bo‘lib, unda sektorlar bo‘yicha kapital va mehnat ulushi, energiya sig‘imi, emissiya koeffitsienti va “yashil” kapitalning qayta ishlash sektorining energiya sig‘imiga ta’siri ko‘rsatilgan.

1-jadval

Makroiqtisodiy model doirasida yashil moliya arxitekturasining parametrlari ²⁶

Parametr	Tavsifi	Qiymati
αF	F sektorida kapital ulushi	0.45
αM	M sektorida kapital ulushi	0.35
λM	M sektorida kapital ulushi	0.55
αG	G sektorida kapital ulushi	0.4
δ	Kapitalning eskirish normasi	0.08
ψK	K_G ning M sektori energiya sarfiga ta’siri	0.1
ηF	F sektorining energiya sarfi	0.8
κ	Emissiya koeffitsienti	0.35

Modelda davlat qarorlari va islohotlarning makroiqtisodiy dinamikaga ta’sirini aks ettiruvchi institutsional parametrlar, jumladan, innovatsiyalarni joriy etish tezligi, investitsiyalarni moslashtirish, shaffoflik va boshqaruv samaradorligi hisobga olingan. Institutsional ta’sirlarga misol 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Yashil rivojlanish modeliga integratsiyalashgan yashil moliya arxitekturasining institutsional asoslari ²⁷

Normativ-huquqiy hujjat	Asosiy mazmuni	Institutsional samara	Modelda aks etishi
PF-60, 28.02.2022 “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”	Barqaror o‘shish va yashil modernizatsiya maqsadlari belgilandi	Investitsiyalarning strategik ustuvorliklarini shakllantirish	G sektoriga investitsiyalar ulushini oshirish
VMQ-561, 25.10.2023 “Milliy «yashil» iqtisodiyot taksonomiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”	“Yashil” loyihalar mezonlari va standartlari joriy etildi	Moliyalashtirishni tartibga solish, risklarni kamaytirish	Yashil investitsiyalar koeffitsiyentining o‘shishi (ψK)
PQ-213, 05.06.2024 “O‘zbekiston Respublikasida «yashil» iqtisodiyotga o‘tishda milliy shaffoflik tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”	Chiqindilar va iqlim ma’lumotlarini hisobga olish tizimi yaratildi	Investorlar ishonchini oshirish, noaniqlikni kamaytirish	Emissiya koeffitsiyenti (κ) pasayishi
PF-106, 23.07.2024 “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Iqlim kengashini tashkil etish to‘g‘risida”	Iqlim siyosati va islohotlarni muvofiqlashtirish	Boshqaruv to‘siqlarini kamaytirish	Institutlarning moslashuv tezligini oshirish
PQ-184, 15.05.2025 “2030-yilgacha bo‘lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”	Ekologik ta’lim dasturlarini joriy etish	Islohotlarga ijtimoiy tayyorgarlikni oshirish	G sektorida mehnat samaradorligining o‘shishi

²⁶ International Energy Agency (IEA). Uzbekistan – Countries & Regions. Energy-related CO₂ emissions; Energy intensity. URL: <https://www.iea.org/countries/uzbekistan> (murojaat sanasi: 08.10.2025).

²⁷ O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi milliy ma’lumotlar bazasi (Lex.uz) <https://lex.uz/>


Ekologik siyosatning fiskal salohiyatini baholash uchun modelga uglerod solig'i kiritilgan. Hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki, hatto o'rtacha stavkada ham soliq daromadlari yashil investitsiyalarni moliyalashtirish uchun sezilarli resursni shakllantiradi (3-jadval).

3-jadval

Yashil soliq islohoti (uglerod solig'i) joriy etilishining fiscal natijalari ²⁸

Soliq stavkasi	Byudjet daromadi (baholash)
$\tau_C = 10 \text{ \$}/\text{tCO}_2$	$10 \times 113 \text{ mln t} = 1,13 \text{ mlrd \$}$
$\tau_C = 30 \text{ \$}/\text{tCO}_2$	$30 \times 113 \text{ mln t} = 3,39 \text{ mlrd \$}$
$\tau_C = 50 \text{ \$}/\text{tCO}_2$	$50 \times 113 \text{ mln t} = 5,65 \text{ mlrd \$}$

3-jadvaldan ko'rinib turibdiki, uglerod solig'ining minimal stavkasida ham davlat byudjeti 1 milliard dollardan ortiq mablag' oladi, bu esa yashil investitsiya dasturlarini moliyalashtirishning haqiqiy manbasini tashkil etadi. Ushbu natijalarni yaqqol tasavvur qilish uchun quyida byudjet daromadlarining uglerod solig'i darajasiga bog'liqlik grafigi keltirilgan.



1-rasm. Turli stavkalardagi uglerod solig'i daromadi ²⁹

Rasmdan ko'rinib turibdiki, soliq stavkasining o'sishi byudjet tushumlarining sezilarli darajada oshishiga olib keladi: bir tonna CO₂ uchun 50 dollar darajasida daromadlar 5,65 milliard dollarga yetadi, bu davlat investitsiya dasturlari ko'lamiga mos keladi. Shunday qilib, uglerod solig'i ikki tomonlama funksiyani bajaradi - ekologik (chiqindilarni kamaytirish) va fiskal (yashil investitsiyalarni moliyalashtirishning barqaror manbasini yaratish).

Ushbu fakt muallif tomonidan ilk bor ekologik siyosatning YAIM va bandlik sur'atlariga ta'sirini ssenariy tahlil qilish, institutsional cheklovlar va tarkibiy nomutanosibliklarni hisobga olish, shuningdek, davlat siyosatining fiskal salohiyatini miqdoriy baholash imkonini beruvchi yashil rivojlanishning integratsiyalashgan makroiqtisodiy modeli ishlab chiqilganligini tasdiqlaydi. Ushbu natijalar O'zbekiston milliy iqtisodiyotida yashil o'tishning makroiqtisodiy

²⁸ International Energy Agency (IEA). Uzbekistan – Countries & Regions. Energy-related CO₂ emissions; Energy intensity. URL: <https://www.iea.org/countries/uzbekistan> (murojat sanasi: 08.10.2025).

²⁹ United Nations Framework Convention on Climate Change (UNFCCC). Updated Nationally Determined Contribution (NDC) of Uzbekistan, 2021. URL: <https://unfccc.int> (murojat sanasi: 08.10.2025)

ta'sirini rejalashtirish va baholash uchun institutsional-strukturali yondashuvni qo'llash mumkinligini tasdiqlaydi.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning hozirgi holati va muammolari tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida iqtisodiy siyosatni takomillashtirishning muhim yo‘nalishlari tahlil qilingan bo‘lib, bu energiya sig‘imi va ekologik yuk darajasi yuqori bo‘lgan korxonalar uchun ekologik soliqlar va yig‘imlarning tabaqalashtirilgan shkalasini bosqichma-bosqich qo'llashni nazarda tutuvchi "yashil" soliq islohoti elementlarini joriy etish hisoblanadi. Bunday soliqni tartibga solish korxonalarni chiqindilarni kamaytirish va energiya samaradorligini oshirishga undaydigan narx signallarini shakllantiradi, shuningdek, kam uglerodli tarmoqlar tomon tarkibiy o‘zgarishlarni rag‘batlantiradi.

Ekologik investitsiyalarni rag‘batlantirish uchun soliq kreditlarini taqdim etish, qayta tiklanadigan energiya sohasida ishlatiladigan uskunalarning jadal amortizatsiyasini hisoblash, energiya samarador mahsulotlar va texnologik yechimlar uchun qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha imtiyozlarni qo'llash amaliyotini kengaytirish maqsadga muvofiq. Bunday soliq rag‘batlarini taqdim etish investitsiya multiplikatori ta'sirini kuchaytiradi va kaskadli samaralar paydo bo‘lishiga yordam beradi, bu ayniqsa ishlab chiqarish barqarorligining asosiy omili resurslarni tejash bo‘lgan qurg‘oqchil hududlar uchun muhimdir.

Shunday qilib, “yashil” soliq islohoti dissertatsiyada taklif etilgan multiplikativ samaralarning makroiqtisodiy mexanizmini to‘ldiradi, suv va energiya tejaydigan texnologiyalarga investitsiyalarning iqtisodiy o‘lishga ta'sirini kuchaytiradi.

O‘tkazilgan tahlillar asosida suv va energiyani tejaydigan texnologiyalarga investitsiyalar qurg‘oqchil mintaqalar iqtisodiyotida multiplikativ samara keltirishini ko‘rsatuvchi o‘ziga xos makroiqtisodiy mexanizm ishlab chiqildi. Taklif etilgan mexanizm resurs tejamkor texnologiyalarga kapital qo‘yilmalarning o‘lishi, energiya samaradorligini oshirish va uglerod sig‘imini kamaytirish bilan birga yalpi ishlab chiqarishni kengaytirish o‘rtasidagi sabab-oqibat aloqalarini ochib beradi. Mexanizm strukturasi uchta o‘zaro bog‘liq blokni o‘z ichiga oladi: QTEM va ekologik loyihalarga investitsiyalarning o‘lishini aks ettiruvchi investitsiya-texnologik; yalpi ishlab chiqarish, bandlik va daromadlarning o‘lishini ko‘rsatadigan ishlab chiqarish-natijaviy; uglerod sig‘imining pasayishi va energiya samaradorligining oshishini ko‘rsatadigan ekologik-resurs bloklari.

Mazkur ilmiy natijaning empirik asoslari 2016–2024-yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotining yashil sektorlariga kiritilgan investitsiyalar dinamikasini o‘z ichiga olgan 4-jadval asosida keltirilgan. Ko‘rsatilgan davr mobaynida qayta tiklanuvchi energiya manbalari, chiqindilarni boshqarish va ekologik loyihalarga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi to‘rt barobardan ortiq o‘shib, 2016-yildagi 0,8 mlrd AQSH dollaridan 2024-yilda 3,8 mlrd AQSH dollariga yetdi. Yashil yo‘nalishlarga kapital qo‘yilmalarning o‘lishi suv va energiyani tejash, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish va yangi texnologik zanjirlarni shakllantirish sohasida davlat va xususiy investitsiya siyosatining faollashganidan dalolat beradi.

4-jadval

**O‘zbekiston iqtisodiyotining yashil sektorlariga investitsiyalarning
o‘zgarish dinamikasi ³⁰**

Yil	QTEMga investitsiyalar (mlrd \$)	Chiqindilarni boshqarishga investitsiyalar (mlrd \$)	Ekologik loyihalar (suv, agroekologiya) (mlrd \$)	Jami yashil investitsiyalar (mlrd \$)
2016	0,5	0,1	0,2	0,8
2018	0,7	0,2	0,2	1,1
2020	1,1	0,2	0,2	1,5
2022	1,8	0,3	0,4	2,5
2024	2,8	0,4	0,6	3,8

Olingan natijalar resurs tejovchi texnologiyalarga kiritilgan investitsiyalar multiplikativ samara shakllantirishini tasdiqlaydi:

iqtisodiy samara - yalpi ishlab chiqarish va energiya samaradorligining o‘shishi orqali;

ijtimoiy samara- aholi bandligi va daromadlarini oshirish orqali;

ekologik samara - uglerod sig‘imini kamaytirish va tabiiy resurslardan foydalanishni oqilona tashkil etish hisobiga.

Yashil yo‘nalishlarga kapital qo‘yilmalarning o‘shishi suv va energiyani tejash, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish va yangi texnologik zanjirlarni shakllantirish sohasida davlat va xususiy investitsiya siyosatining faollashganidan dalolat beradi.

Taklif etilgan mexanizmning ekologik samarasini baholash maqsadida uglerod chiqindilari darajasi hamda iqtisodiyotning energiya sig‘imidagi o‘zgarishlarni aks ettiruvchi ma’lumotlarni taqdim etamiz, bu esa investitsiyalar o‘shishi bilan ishlab chiqarishning uglerod sig‘imining pasayishi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash imkonini beradi.

5-jadval

**O‘zbekiston iqtisodiyotida CO₂ chiqindilari darajasi va energiya sig‘imining
o‘zgarish dinamikasi³¹**

Yil	CO ₂ chiqindilari (mln. tonna)	Aholi jon boshiga CO ₂ chiqindilari (tonna)	CO ₂ /YAIM (1 USD uchun kg)
2016	112,0	3,6	0,82
2017	113,5	3,6	0,79
2018	114,0	3,7	0,75
2019	113,8	3,6	0,71
2020	111,2	3,5	0,70
2021	109,6	3,4	0,67
2022	110,1	3,4	0,64
2023	109,0	3,3	0,60
2024	107,5	3,2	0,57

³⁰ OECD. Green Growth Indicators: Green Statistics. — Paris: Organisation for Economic Co-operation and Development, 2023. http://stats.oecd.org/OECDStat_Metadata/

³¹ O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo‘mitasi (www.stat.uz)

Keltirilgan bog‘liqliklar 5-jadval ma’lumotlari bilan tasdiqlanadi: YAIMning barqaror o‘sishi sharoitida YAIM birligiga to‘g‘ri keladigan CO₂ chiqindilari 2016 yilda 1 AQSH dollariga 0,82 kg dan 2024 yilda 1 AQSH dollariga 0,57 kg gacha kamaygan, ya’ni qariyb uchdan bir qismiga qisqargan. Bu investitsiya jarayonlarining makroiqtisodiy rivojlanish barqarorligiga va qurg‘oqchilikka moyil hududlar sharoitida iqtisodiyotning ekologik transformatsiyasiga tizimli ta’sirini namoyon etadi.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekistonda yashil rivojlanish makroiqtisodiy siyosatini takomillashtirish yo‘nalishlari”** deb nomlangan uchinchi bobida barqaror rivojlanish traektoriyalari baholangan bo‘lib, ular “yashil” makroiqtisodiy indikatorlar tizimiga asoslangan majburiy ssenariy modellashtirishni qo‘llashni talab etadi. Ssenariyli yondashuv iqtisodiy o‘shish, +ekologik barqarorlik va +tabiiy kapitalni saqlash o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tahlil qilish imkonini beradi bu esa 4–7-jadval ma’lumotlari bilan empirik tasdiqlanadi va siyosiy qarorlar oqibatlarini kompleks baholashni ta’minlaydi. O‘zbekiston sharoitida bunday modellashtirish resurslar bazasining hududiy nomutanosibligi va iqlim sharoitlarining xilma-xilligini hisobga olgan holda alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘tkazilgan tahlilni hisobga olgan holda iqtisodiyot tarmoq strukturasining dinamikasi, industriallashtirish darajasi, resurs samaradorligi, uglerod chiqindilari, suv resurslaridan foydalanish hajmlari, qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirishdagi rivojlanish hamda ekologik siyosat ta’sirini aks ettiruvchi “yashil farovonlik” makroiqtisodiy indikatorlar tizimi moslashtirildi. Ushbu tizim rivojlanishning muqobil ssenariylarini shakllantirishda qo‘llaniladi va iqtisodiy o‘shishning tanlangan traektoriyasi barqarorligini baholash vositasi sifatida xizmat qiladi.

6-jadval

O‘zbekistonda suv resurslaridan foydalanishning o‘zgarish dinamikasi ³²

Yil	Jami suv olish (mlrd m ³)	Qishloq xo‘jaligiga (%)	Sanoatga (%)	Maishiy sektorga (%)
2016	52,3	89	7	4,0
2017	51,7	88	8	4,1
2018	50,9	87	9	4,1
2019	50,6	86	10	4,0
2020	50,3	85	11	3,9
2021	50,5	85	11	4,0
2022	50,8	84	12	4,2
2023	51,2	83	13	4,3
2024	51,6	82	14	4,2

O‘tkazilgan tahlillar asosida iqtisodiy o‘shish sifatini uning ekologik muvozanatligi va ijtimoiy samaradorligi nuqtayi nazaridan baholashning integratsiyalashgan vositasi bo‘lgan “yashil farovonlik” makroiqtisodiy indikatorlarining mualliflik tizimi taklif etildi. Mavjud uslubiyotlardan farqli o‘laroq, tizim iqtisodiyotning tarkibiy modernizatsiyasi, tabiatdan foydalanish samaradorligi va ijtimoiy-ekologik ko‘rsatkichlarni hisobga oladi. Indikatorlarning har bir bloki mustaqil tahliliy funksiyani bajaradi:

³² O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo‘mitasi (www.stat.uz)

strukturali-iqtisodiy komponent sanoatlashtirish jarayonini va YAIM tarmoq strukturasining o'zgarishini aks ettiradi;

resurs-ekologik komponent suv, yer va energetika resurslaridan foydalanishning oqilonaligini tavsiflaydi;

ijtimoiy-ekologik blok yashil o'sishning aholi turmush sifati, bandligi va ekologik xavfsizligiga ta'sirini qayd etadi.

6-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2016–2024-yillar davomida mamlakatda jami suv olish hajmi taxminan 51 mlrd m³ darajasida barqaror saqlanib qolgan, biroq suvdan foydalanish strukturasida bosqichma-bosqich qishloq xo'jaligidan sanoat va maishiy sektorlar foydasiga siljigan. Qishloq xo'jaligining ulushi 7 foiz bandiga qisqargan bo'lsa, sanoatning suv iste'molidagi ishtiroki 7 % dan 14 % gacha oshgan. Maishiy sektor ulushining oz miqdorda o'sishi (4,0 % dan 4,2–4,3 % gacha) aholi turmush darajasining oshishi va kommunal infratuzilmaning kengayishini, shu bilan birga suvni tejash texnologiyalarining joriy etilishini aks ettiradi.

Tabiiy resurslardan muvozanatli foydalanish mamlakat iqtisodiyotida asta-sekin strukturali siljishlar bilan birga kechadi. Ushbu o'zgarishlarni “yashil farovonlik” kontekstida tahlil qilish uchun 7-jadvalda O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulotining tarmoq tarkibi dinamikasi keltirilgan.

7-jadval

YAIM strukturasining tarmoqlar bo'yicha o'zgarish dinamikasi³³

Yil	Qishloq xo'jaligi (%)	2018-yilga nisbatan o'zgarish	Sanoat (%)	2018-yilga nisbatan o'zgarish	Xizmatlar (%)	2018-yilga nisbatan o'zgarish
2018	32,1	—	25,1	—	42,8	—
2019	29,7	-2,4	26,5	+1,4	43,8	+1,0
2020	26,6	-5,5	30,5	+5,4	42,9	+0,1
2021	26,5	-5,6	33,8	+8,7	39,7	-3,1
